

## BMT, YUNESKO VA BOSHQA TASHKILOTLAR BILAN O'ZBEKISTON HAMKORLIGINING RIVOJLANISHINING HUQUQIY MASALALARI

*Qurbanova Parizoda Ural qizi*

*Termiz Davlat Universiteti Juridik fakulteti talabasi*

*Ilmiy rahbar: Nazarov Elbek Shermaxmatovich*

*Jinoyat huquqi va fuqarolik protsessi kafedrasи o'qituvchisi*

**Annotation:** O'zbekiston Respublikasi va BMT o'rta-sidagi munosabatlar, va O'zbekiston Respublikasi va YUNESKO o'rta-sidagi munosabatlar, BMT faoliyati, BMT faoliyati, xalqaro hamjamiyatning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tutgan o'rni, xalqaro munosabatning huquqiy jarayoni, ushbu sohani tartibga soluvchi normalar, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi tahlili hamda bu o'rganish va tahlillar asosida taklif va ilmiy tavsiyalar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Xalqaro munosabatlar, o'zaro hamkorlik, xalqaro normalar, xalqaro tashkilotlar, o'zaro manfaatli hamkorlik , harakatlar strategiyasi, Bosh Assambleya, o'zgartirishlar.

**Аннотация:** Отношения между Республикой Узбекистан и ООН, и отношения между Республикой Узбекистан и ЮНЕСКО, деятельность ООН, деятельность ЮНЕСКО, роль международного сообщества в социально-экономическом развитии страны, правовая процесс международных отношений, нормы регулирующего органа в этой области, анализ законодательства зарубежных организаций, а также предложения и научные рекомендации на основе этих исследований и анализов.

**Ключевые слова:** Международные отношения, взаимное сотрудничество, международные нормы, международные организации, взаимовыгодное сотрудничество, стратегия действий, Генеральная Ассамблея, поправки.

O'zbekiston Respublikasi Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida "O'zbekiston va UNESCO: madaniy aloqalarning shakllanish tarixi va rivojlanish istiqbollari" respublika ilmiy – amaliy konferentsiyasi bo'lib o'tdi. Forum tashabbuskori ushbu universitetda faoliyat ko'rsatadigan – Sharq madaniyati va merosini o'rganish ilmiy markazi bo'ldi. O'zbekiston va UNESCO o'rta-sidagi hamkorlik bu yil 28 yilni nishonlaydi. Bu davrda respublikada ushbu nufuzli xalqaro tashkilot bilan madaniyat, ta'lim, fan, axborot, huquq va boshqa sohalarda aloqalarni mustahkamlash bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi.

Mazkur tadbirlarining xalqaro ahamiyati, mamlakatimiz va Markaziy Osiyo respublikalarining madaniy, ma'naviy va nomoddiy merosini saqlashga qo'shgan hissasi, UNESCO ro'yxatiga kiritish uchun joylarni kengaytirish istiqbollari haqida

bilib olishimiz mumkin. Shuningdek, tadbirda muhokama qilingan masalalar O'zbekiston Respublikasi, hamda UNESCO o'rtaqidagi hamkorlikning huquqiy jihatlariga bag'ishlandi va "UNESKOning xalqaro huquqi va inson huquqlari" tajribasi bilan o'rtoqlashish bu ikki o'rtadagi munosabatning qay tarzda yuqori cho'qiga chiqganligini namunasi bo'lmoqda.

Muhokama iarayonida tarixiy obidalarni asrashning ahamiyati, ichki va xalqaro turizmni kengaytirish, qadimiy joylarda arxeologik tadqiqotlar olib borish uchun xalqaro mutaxassislarini jalb qilish bo'yicha o'zaro hamkorlik amalga oshirish qanchalik ahamiyatli ekanligi ham ayon bo'ldi.

O'zbekiston yangi suveren, mustaqil davlat sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga 1992 yil 2 martda a'zo bo'lgach. Mamlakatimiz ushbu tarixiy voqeadan keyin o'tgan vaqt mobaynida BMT va uning turli sohalardagi ixtisoslashgan muassasalari bilan samarali hamkorlik qilib kelmoqda. Xususan, xavfsizlikka qarshi zamonaviy tahdid va xavf-xatarlarga qarshi kurashish, Afg'onistonda barqarorlikka erishish va mamlakat iqtisodiyotini qayta tiklash, ommaviy qirg'in qurollarini tarqatmaslik, ekologik muammolarni hal qilish, xususan, Orol inqirozi oqibatlarini yumshatish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, inson huquqlarini himoya qilish va ilgari surish, turizmni rivojlantirish kabi ustuvor masalalar ko'p qirrali hamkorlikning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi.

Toshkentda 1993 yildan buyon BMT vakolatxonasi faoliyat ko'rsatmoqda. BMT Taraqqiyot dasturi (BMTTD), Aholishunoslik jamg'armasi (BMTAJ), Bolalar jamg'armasi (YuNISEF), Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST), Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YuNESCO), Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (BMTGMJB), Markaziy Osiyoda preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi (BMTMOPDMM), Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT), Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO), Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot (MXT), shuningdek, Ko'ngillilar dasturi O'zbekistonda "BMT oilasi"ni tashkil qiladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoatni rivojlantirish tashkiloti (YuNIDO), Atrof-muhit bo'yicha dasturi (YuNEP) va Yevropa iqtisodiy komissiyasi (BMTEIK) ham BMT faoliyatiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelmoqda. Shuningdek, Jahon banki BMTning mustaqil ixtisoslashgan organi sifatida tuzilmaning mamlakatimizdagagi ishiga salmoqli hissa qo'shmaqda.

Harakatlar strategiyasida belgilangan asosiy vazifalarni amalga oshirish doirasida so'nggi to'rt yilda O'zbekiston bilan BMT o'rtaida yuqori darajadagi siyosiy hamkorlik sezilarli faollashdi. Buni BMT Bosh Assambleya va ixtisoslashgan tuzilmalaridagi O'zbekiston ishtirokining jonlanganidan ham bilish mumkin.

BMT Bosh kotibi Antonio Guterrish 2017 yil iyun oyida mamlakatimizga tashrif buyurdi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan uchrashdi.

Davlatimiz rahbarining BMT Bosh kotibi bilan uchrashuvi, shuningdek, 2017 yil sentyabr oyida AQShning Nyu-York shahrida o'tgan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasi hamda Pekinda 2019 yil aprel oyida o'tgan "Bir makon, bir yo'l" ikkinchi xalqaro forumi doirasida Prezidentimizning BMT Bosh kotibi bilan uchrashuvlari bo'lib o'tdi. Ushbu muloqotlar natijasida O'zbekiston – BMT hamkorligini rivojlantirish bo'yicha uchta amaliy chora-tadbirlar rejasi qabul qilindi va amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyaning 72-sessiyasidagi ishtiroki mamlakatimizning xalqaro tashkilot bilan samarali va o'zaro manfaatli hamkorligida yangi davrni boshlab berdi. Ushbu tadbir davomida qator muhim xalqaro tashabbuslar ilgari surilib, muvaffaqiyatli amalga oshirib kelinmoqda.

Hamkorlikdagi yangi muhit tufayli O'zbekiston BMTning barcha sohalardagi jarayonlarining faol ishtirokchisiga aylandi. Bu a'zo davlatlarning mamlakatimizga bo'lgan ijobiy munosabatida namoyon bo'lmoqda.

Xususan, so'nggi ikki yilda O'zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleysi doirasida uchta rezolyutsiya ishlab chiqildi va qabul qilindi. Bu haqiqatan O'zbekiston diplomatiyasi uchun katta yutuqdir. Mamlakatimiz hozirgi kunda ko'p tomonlama hamkorlikning yangi ruhini qo'llab-quvvatlagan holda, a'zo davlatlar bilan birgalikda Bosh Assambleyaning yana bir muhim rezolyutsiyasi va Yoshlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi qabul qilinishi ustida ish olib bormoqda.

Global va mintaqaviy xavfsizlik, barqarorlik sohasida sheriklik O'zbekiston bilan BMT o'rtaсидаги hamkorlikning muhim yo'nalishlaridan biridir. Mamlakatimiz ushbu sohadagi xalqaro sa'y-harakatlarga faol hissa qo'shib kelmoqda. BMTning terrorizmga qarshi kurash bo'yicha barcha 13 konvensiyasi ishtirokchisi bo'lgan O'zbekiston ushbu sohada dunyo hamjamiyatining sa'y-harakatlarini birlashtirish hamda tashkilot doirasidagi global hamkorlik tizimini yaratishga qaratilgan yirik tashabbuslarni ilgari surdi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston BMT Xavfsizlik kengashining 1373 rezolyutsiyasi bilan tashkil etilgan Terrorizmga qarshi kurashish qo'mitasi ishini ma'qullaydi va a'zo davlatlarning ushbu illatga qarshi kurashishdagi salohiyatini kuchaytirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni to'la qo'llab-quvvatlaydi. Qo'mitaning tashkil etilishi, o'z navbatida, O'zbekiston tashabbusi hamdir. Boisi mamlakatimiz tomonidan BMTning Istanbulda 1999 yil bo'lib o'tgan Xavfsizlik va hamkorlik sammitida Terrorizmga qarshi kurash xalqaro markazini tashkil etish bo'yicha taklifni ilgari surilgandi.

O'zbekiston giyohvandlikka qarshi kurashda BMT va uning ixtisoslashgan muassasalari bilan yaqin hamkorlik qilmoqda. Bu sohada BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi bilan tegishli vazirlik-idoralar salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan aniq amaliy loyihamalar amalga oshirilmoqda. BMT Bosh kotibining 2002 yil oktyabr oyida Toshkentga tashrifi chog'ida O'zbekiston tomonidan

bildirilgan taklifga binoan, Narkotik vositalar, psixotrop moddalar va ularning prekursorlari noqonuniy aylanishiga qarshi kurash bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy axborot-muvofiqlashtirish markazi tashkil etildi.

Toshkentda 2018 yil mart oyida Afg'oniston bo'yicha yuqori darajali konferensiya tashkil etildi. O'sha yilning aprel oyida esa xalqaro tadbir bo'yicha qabul qilingan yakuniy deklaratsiya BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasi va Xavfsizlik kengashi rasmiy hujjati sifatida tarqatildi. Bundan tashqari, O'zbekiston rahbariyatining Afg'onistondagi vaziyatni tinch yo'l bilan hal etishga qaratilgan sa'y-harakatlari va Afg'oniston bo'yicha Toshkent konferensiyasi haqidagi ma'lumotlar BMT Bosh kotibining 2018 yil sentyabr oyida e'lon qilingan "Afg'onistondagi vaziyat hamda uning xalqaro tinchlik va xavfsizlikka ta'siri" ma'rurasiga kiritildi.

BMT Bosh Assambleyasini tomonidan 2018 yil 22 iyun kuni "Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash" tarixiy rezolyutsiyasining qabul qilinishi O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni yuqori darajada rivojlantirish bo'yicha tashabbuslarining xalqaro miqyosda keng qo'llab-quvvatlanayotganidan darakdir.

Bugungi kunda O'zbekiston va BMTning ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi hamkorligi yanada faollashib bormoqda. Ushbu sohada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yana bir o'tkir va dolzarb global muammoga – Orol dengizi fojiasiga e'tiborni qaratdi va dunyo hamjamiyatini "Ushbu ekologik ofatning Markaziy Osiyoda yashayotgan millionlab odamlar turmush tarziga halokatli ta'sirini kamaytirishga va tabiiy, biologik tabiatni saqlashga" chaqirdi.

Orol dengizining ekologik halokati jiddiyligini inobatga olib, mamlakatimizda ushbu fojia oqibatlarini yumshatish bo'yicha qator muhim xalqaro tadbirlar o'tkazildi. Xususan, 2008 yil mart oyida "Orol muammolari, ularning aholi genofondiga ta'siri, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda ular oqibatlarini yumshatish bo'yicha xalqaro hamkorlik choralar" mavzuida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Unda BMT vakillari faol ishtirok etdi.

BMT Bosh Assambleyasining 63-sessiyasida barcha ishtirokchilar tomonidan birdek ma'qullangan va O'zbekiston hammualliflaridan biri bo'lgan "Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasiga Bosh Assambleya huzurida kuzatuvchi maqomini berish to'g'risida"gi rezolyutsiya qabul qilingani muhim voqeа bo'ldi. Orolbo'yи hududidagi vaziyatni barqarorlashtirish va yaxshilashga qaratilgan, O'zbekistonning Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasidagi raisligi doirasida ishlab chiqilgan "Orol dengizining qurishi va Orol dengizidagi ekotizim falokatlarining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi" BMT Bosh Assambleyasining rasmiy hujjati sifatida tarqatilgandi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining umumiyligi muhokamasi chog‘ida ilgari surgan tashabbusga binoan, 2018 yilda BMT shafe’ligida Inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘p tomonlama sheriklik asosida Trast fondi o‘z faoliyatini boshladi. Jamg‘arma taqdimoti chog‘ida BMT Bosh kotibi ta’kidlaganidek, “Ushbu tuzilma mahalliy aholining yashash sharoitini sezilarli darajada yaxshilaydi va Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishga yordam beradi. Maqsadli fond tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan dasturlar mintaqada yangi ish o‘rinlarini yaratishga yordam bermoqda. Xususan, ushbu ish o‘rinlarida 45 foiz xotin-qizlar band. Ish bilan ta’minalash ularning imkoniyatlarini kengaytirib, tibbiy xizmatlardan foydalanish sharoitini yaxshiladi va farovonligini oshirdi”.

Norvegiya hukumati 2018 yil 28 mart kuni Nyu-Yorkda Trast fondi uchun 1,1 million dollar ajratish bo‘yicha shartnomasi imzoladi. 2019 yil 11 noyabr kuni O‘zbekiston delegatsiyasining Bryusselga tashrifi chog‘ida Yevropa Ittifoqi tomonidan Trast fondiga 5,2 million yevro miqdorida mablag‘ berilishiga doir bitim imzolandi. Shuningdek, Finlyandiya ham Fond faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun 1 million yevro ajratish to‘g‘risida qaror qabul qildi.

Hozirgi vaqtida Koreya Respublikasi hukumati Trast fondiga 1 million dollar miqdorida grant mablag‘larini yo‘naltirishni ko‘rib chiqmoqda. Germaniya, Yaponiya, Xitoy, Saudiya Arabiston, Rossiya, Turkiya ham Trast fondi bilan hamkorlik imkoniyatlarini o‘rganmoqda. Bularning barchasi O‘zbekiston rahbariyatining Orolbo‘yida ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga qaratilgan tashabbusi keng xalqaro qo‘llab-quvvatlanayotganidan dalolat beradi.

Qatnashchilar O‘zbekiston Respublikasining Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasini, deb e’lon qilish to‘g‘risidagi BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklifini mammuniyat bilan qabul qildi. Mamlakatimizning Orolbo‘yida salbiy oqibatlarni yumshatish bo‘yicha olib borayotgan amaliy ishlariga yuqori baho berildi. Ayni paytda BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasini ishlab chiqish va qabul qilish bo‘yicha amaliy choralar ko‘rilmoxda.

O‘zbekistonning YuNESKO bilan hamkorligi alohida e’tiborga molik. O‘tgan yillarda davomida ushbu tashkilot bilan birgalikda Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Ahmad Farg‘oniy, Imom Buxoriy, Kamoliddin Behzod kabi buyuk mutafakkirlarimiz tavallud ayyomlari, Buxoro, Xiva, Termiz, Shahrisabz, Qarshi, Samarqand, Marg‘ilon va Toshkent singari tarixiy shaharlar yubileyлari, Alpomish, Avesto, Xorazm Ma’mun akademiyasi kabi etno-madaniy, ilmiy-ma’rifiy va adabiy merosimiz munosabati bilan tadbirlar keng nishonlandi.

BMT Bosh Assambleyasining 2019 yil 19 dekabrdagi yalpi majlisida "Markaziy Osiyoda barqaror turizm va barqaror rivojlanish" maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi. Ushbu tashabbus Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan Pekinda 2019 yil aprel

oyida BMT Bosh kotibi A.Guterrish bilan uchrashuv chog‘ida ilgari surilgan edi. O‘zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan va Markaziy Osiyo mamlakatlari nomidan taqdim etilgan hujjat loyihasi BMTga a’zo davlatlar tomonidan bir ovozdan qo‘llab-quvvatlandi. Ushbu hujjat hammuallifi sifatida Shimoliy va Lotin Amerikasi, Osiyo, Afrika va boshqa qit’alardan 50 dan ziyod mamlakat ishtirok etdi. Bu xalqaro hamjamiyat tomonidan O‘zbekiston rahbari tashabbusining dolzarbliji va o‘z vaqtida qabul qilinganidan dalolat beradi.

Prezidentimiz BMT minbaridan turib, O‘zbekiston taklif etgan rezolyutsiyaning asosiy maqsadi "Barchaning ta’lim olish huquqini ta’minalashga, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko‘maklashishdan iborat" ekanini ta’kidladi. Hujjat "Bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta’minalash, e’tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslikka ko‘maklashishga qaratilgan"ini qayd etdi.

BMT Bosh Assambleyasining 2018 yil 12 dekabrdagi yalpi majlisida "Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik" maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi. O‘zbekiston tomonidan qisqa muddatlarda ishlab chiqilgan ushbu hujjat BMTga a’zo davlatlar tomonidan bir ovozdan qo‘llab-quvvatlandi. Shimoliy va Lotin Amerikasi, Osiyo, Afrika va boshqa qit’alarning 50 dan ortiq mamlakati ushbu hujjat hammuallifiga aylandi.

O‘zbekiston BMT bilan rivojlanib borayotgan hamkorlik negizida Bosh kotib A.Guterrish boshlagan islohotlarni qo‘llab-quvvatlamoqda. Qisqa va o‘rta muddatli istiqbolda esa ko‘p tomonlama hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari sifatida yurtimizning xalqaro maydondagi obro‘sini mustahkamlash uchun ushbu xalqaro tashkilot platformasidan yanada faolroq foydalanishga e’tibor qaratadi.

Bunda BMTga a’zo davlatlar ishtirokida Orolbo‘yi mintaqasida Trast fondi faoliyatini yanada rivojlantirish, ekologik va iqtisodiy sohada qo‘shma loyihalarni milliy manfaatlar nuqtai nazaridan ishlab chiqish va amalga oshirishga alohida e’tibor beriladi. Joriy yilda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun qabul qilinadigan yangi hadli bitim doirasida madaniy va tarixiy voqealarni aks ettiruvchi turli tadbirlarni tashkil etish mamlakatimiz salohiyatini aks ettiradi.

Xulosa o‘rnida aytganda, uzoq muddatli tinchlikning faol tarafдори va hamkorlikni har tomonlama kengaytirish tashabbuskori sifatida O‘zbekiston bundan buyon ham BMT va unga a’zo davlatlar bilan hamkorlikka katta e’tibor qaratadi. Bunda BMT rahbariyatining har tomonlama qo‘llab-quvvatlashiga ishonch bildirish mumkin. Zero, O‘zbekiston tomonidan ilgari surilayotgan tashabbuslar BMT global maqsadlari, shu jumladan, sayyoramizda tinchlik, barqarorlik va farovonlikni mustahkamlashga qaratilgan Barqaror rivojlanish maqsadlariga to‘liq mos keladi.

**1. QONUN VA QONUNOSTI HUJJATLARI:**

- a. "Markaziy Osiyoda barqaror turizm va barqaror rivojlanish" maxsus rezolyutsiyasi, // 19.12.2019 y.
- b. Ekologik nazorat to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 29.08.1996 yil 265-I-son.
- c. "Orol muammolari, ularning aholi genofondiga ta'siri, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda ular oqibatlarini yumshatish bo'yicha xalqaro hamkorlik choralari" to'g'risidagi konferensiysi bayonomasi, 2008 yil, mart.
- d. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 06.02.2019 yildagi O'RQ-518-son

**INTERNET SAYTLAR MANZILLARI:**

1. <http://www.lex.uz>
2. <https://www.un.org/en/>
3. <http://www.gov.uz>